| Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan                                                                                                                         |      |
| O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish .....                                                                                                          | 1412 |
| Sultonov Sherati Nuraliyevich                                                                                                                              |      |
| Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective .....                                            | 1418 |
| Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna                                                                                                                        |      |
| Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism .....                                                                           | 1425 |
| Norchaev Asatullo Norbutaevich                                                                                                                             |      |
| Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов .....                                                                        | 1430 |
| Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли                                                                                                |      |
| O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish ..... | 1436 |
| Palvanbayev Umiddbek O'ktam o'g'li                                                                                                                         |      |
| Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari .....                                                                                                    | 1440 |
| Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi                                                                                                                            |      |
| Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili .....                                                                | 1444 |
| Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi                                                                                                   |      |
| Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish .....                                                                                 | 1449 |
| Zokirova Feruza Farxod qizi                                                                                                                                |      |
| Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции .....                                                                                                  | 1453 |
| Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи                                                                                                                             |      |
| Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления .....                                                                       | 1458 |
| Нуруллина Камила Рустамовна                                                                                                                                |      |
| Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi .....                                                                                 | 1463 |
| Raxmatov Temur Sotiboldiyevich                                                                                                                             |      |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari .....                                               | 1472 |
| Ulichkina Lyudmila Ivanovna                                                                                                                                |      |
| Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма .....                                            | 1478 |
| Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна                                                                                                    |      |
| Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation .....                 | 1485 |
| Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva                                                                                                                     |      |
| O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari .....                                                                        | 1489 |
| Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li                                                                                                                            |      |
| Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi .....                                                                            | 1493 |
| Q.O.Tursunboyev                                                                                                                                            |      |
| Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises .....                                                   | 1500 |
| Yembergenova Aynur Aidosbayevna                                                                                                                            |      |
| Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari .....                                                                | 1506 |
| Rozmatova Umida Yuldashevna                                                                                                                                |      |
| Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat .....                                                                                      | 1512 |
| Babadjanov Abdirashid Musayevich                                                                                                                           |      |
| Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий .....                                                                  | 1527 |
| Ёдгоров Сардорбек Самадович                                                                                                                                |      |





|                                                                                                                                                     |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....                                                            | 1533 |
| Sabirova Lobar Baxromovna                                                                                                                           |      |
| Xo'jaligini soliqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari .....                                                                  | 1539 |
| Salimov Sherzod Baxtiyorovich                                                                                                                       |      |
| Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into<br>a corruption-free field .....                                    | 1544 |
| Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich                                                                                |      |
| Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане .....                                                                                      | 1548 |
| Юсупов Одил Омонович                                                                                                                                |      |
| Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish:<br>muammolar va imkoniyatlar.....                       | 1554 |
| Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich                                                                                                |      |
| Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning<br>afzalliklari .....                                           | 1560 |
| Madjitova Maftuna Kamiljon qizi                                                                                                                     |      |
| Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari .....                                                                               | 1564 |
| Ziyatova Sitora Baxtiyorovna                                                                                                                        |      |
| Importance of media activity in negotiations.....                                                                                                   | 1569 |
| Fariza Xoldarova                                                                                                                                    |      |
| Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....                                                                              | 1575 |
| Hamroyev Sherzod Axtamovich                                                                                                                         |      |
| Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati .....                                                                       | 1580 |
| Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li                                                                                                                  |      |
| Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari .....                                                                                             | 1586 |
| Umirzoqova Aziza Olim qizi                                                                                                                          |      |
| Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar .....                                                               | 1590 |
| Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich                                                                                       |      |
| Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili .....                                                                                                 | 1595 |
| Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li                                                                                                                |      |
| Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....                                                                  | 1602 |
| Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi                                                                            |      |
| Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis<br>on asia and central asia (2023–2025) .....                        | 1612 |
| Mamataliev Bobur Saidnazar ugli                                                                                                                     |      |
| Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni .....                                                                           | 1617 |
| Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li                                                                                         |      |
| Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....                                                                 | 1623 |
| Xusinov I.I.                                                                                                                                        |      |
| Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari .....                                                                                           | 1630 |
| To'xsanov Qudratillo Nozimovich                                                                                                                     |      |
| Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....                                                                  | 1635 |
| Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich                                                                                 |      |
| Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial<br>management principles.....                                         | 1641 |
| Oripova Saodat Mirfotikh kizi                                                                                                                       |      |
| Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston<br>iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....        | 1646 |
| Halilov Sherzod Akhmatovich                                                                                                                         |      |
| Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison<br>of amazon and walmart (2020–2024).....                     | 1657 |
| Kodir Gulomov                                                                                                                                       |      |
| Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari .....                                                                          | 1664 |
| Ataniyazova Maksuda Baltabayevna                                                                                                                    |      |
| Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potentsialidan foydalanishning<br>optimallashtirish.....                                             | 1669 |
| Jalilov Bahrom Sotiboldievich                                                                                                                       |      |
| Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini<br>hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish ..... | 1674 |
| Musinov Dilshod Sultanovich                                                                                                                         |      |



|                                                                                           |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish..... | 1680 |
| <b>Kuliboyev Azamat Shonazarovich</b>                                                     |      |
| Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....  | 1686 |
| <b>Sattorova Nasiba G'anijon qizi</b>                                                     |      |
| Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....                         | 1690 |
| <b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>                                                   |      |
| Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....                                        | 1694 |
| <b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>                                                       |      |
| Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o'rni va roli.....           | 1701 |
| <b>Xudoyorova Mehrangiz Murodovna</b>                                                     |      |
| Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni: nazariy-metodologik asoslar.....   | 1705 |
| <b>Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich</b>                                                    |      |



# XORIJIY KAPITAL VA UNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI: NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLAR



**Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich**

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Tel: 93-727-53-25

**Annotatsiya:** Maqolada xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda nazariy-metodologik asoslari, mamlakatda faoliyat yuritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan boshqa mamlakat hududida joylashgan iqtisodiy subyektlar yoki iqtisodiyot tarmoqlariga pul mablag'lari, moddiy boyliklar, texnologiyalar, intellektual mulk va boshqa turdagi resurslar ko'rinishida kiritiladigan investitsiyalar bo'yicha ma'lum yondashuvlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** xorijiy kapital, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, portfel investitsiyalar, lizing, franshayzing, transmilliy korporatsiyalar, xorijiy kapital shakllari, xorijiy kapital manbalari.

**Abstract:** This article explores foreign capital and its role in the national economy, as well as the theoretical and methodological foundations of the topic. It examines various approaches to investments made by individuals or legal entities operating in a country into economic entities or sectors located in other countries, in the form of monetary assets, material wealth, technologies, intellectual property, and other types of resources.

**Key words:** foreign capital, direct investment, national economy, portfolio investment, leasing, franchising, transnational corporations, forms of foreign capital, sources of foreign capital.

**Аннотация:** В статье исследуются иностранный капитал и его роль в национальной экономике, а также теоретико-методологические основы. Рассматриваются подходы к инвестициям, осуществляемым физическими или юридическими лицами, действующими в стране, в экономические субъекты или отрасли, расположенные на территории других государств, в форме денежных средств, материальных ценностей, технологий, интеллектуальной собственности и других видов ресурсов.

**Ключевые слова:** иностранный капитал, прямые инвестиции, национальная экономика, портфельные инвестиции, лизинг, франчайзинг, транснациональные корпорации, формы иностранного капитала, источники иностранного капитала.

## KIRISH

Globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va barqaror o'sishni ta'minlashda xorijiy kapitalni jalb etish muhim omillardan biriga aylangan. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviy resurs manbai, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy kapitalni jalb qilishning iqtisodiy samaradorligi, uning shakllari va ta'sir mexanizmlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy kapital – bu bir mamlakatda faoliyat yuritayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan boshqa mamlakat hududida joylashgan iqtisodiy subyektlar yoki iqtisodiyot tarmoqlariga pul mablag'lari, moddiy boyliklar, texnologiyalar, intellektual mulk va boshqa turdagi resurslar ko'rinishida kiritiladigan investitsiyadir. Bunday investitsiyalar, odatda, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish va milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda muhim



ahamiyatga ega. Shu bois xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga jalb etish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

J. Kentor va T. Boswelllarning fikriga ko'ra, xorijiy kapital tushunchasi xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi davlatdan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirituvchi mamlakatlarga eng yirik investitsion ulushini nazarda tutadi.

Iqtisodiy nazariya va xalqaro amaliyotda xorijiy kapital tushunchasi bir nechta yondashuvlar asosida izohlanadi. Jahon banki ta'rifiga ko'ra, xorijiy kapital — bu xorijiy investorlar tomonidan mahalliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita shaklda, ya'ni qo'shma korxonalar, aksiyalar yoki kreditlar orqali kiritiladigan investitsiyalar majmuasidir. Ushbu investitsiyalar mahalliy bozorda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish, mahsulotni sotish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlariga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (28—dekabr—2018—yil): “Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya — bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralari ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim”, — deya ta'kidlab, xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatlari va uning yo'nalishlarini rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini e'tirof etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatlari va uning yo'nalishlaridan samarali foydalanish yo'llarini shakllantirishda investitsiya salohiyati, investitsion xavf darajasi, investitsiyalarni jalb etishda hududiy raqobat afzalliklariga ustuvorlik berishda davlat va bozor mexanizmlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga jalb etish imkoniyatlari va uning yo'nalishlaridan samarali foydalanish doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan Liesbeth Colen va boshqalarning ilmiy ishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik “nou-xau” orqali milliy korxonalarga ilg'or texnologiyalar va bilimlarni jalb qilish iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi.

M. Boltaeva fikricha, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning afzalliklari va samaradorligi o'rganilib, ularning iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni rag'batlantirishdagi roliga e'tibor qaratilgan. Xorijiy investitsiyalar kapital, texnologiya va yangi bozorga kirish imkonini beradi, bu esa ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi siyosiy barqarorlik, infratuzilma, inson kapitali va rag'batlantirish mexanizmlariga bog'liq. Qulay shart-sharoitlar yaratish orqali mintaqaviy va global bozorlarga integratsiyalashgan holda davlatlar barqaror iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishi va o'z fuqarolari farovonligini oshirishi mumkin.

E. Chirila-Donciu o'z tadqiqotida ta'kidlaydiki, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yordamida — ilg'or texnologiyalar, “nou-xau”lar, zamonaviy sifit standartlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

A. Ibragimovning ta'kidlashicha, xorijiy investitsiyalar mamlakat taraqqiyotida va uning iqtisodiy holatini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llaridan biri — soliq imtiyozlari orqali amalga oshiriladi. Soliq mexanizmlari orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

M. Blomstrom fikricha, so'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga munosabat keskin o'zgardi. Ko'plab mamlakatlar xorijiy transmilliy korporatsiyalardan (TMK) investitsiyalarni jalb qilish siyosatini liberallashtirdilar. Xorijiy investitsiyalar bandlik, eksport, soliq tushumlarini optimallashtirish va xorijiy kompaniyalardan olingan bilimlarning mahalliy korxonalarga tarqalishi umidida hukumatlar kirish to'siqlarini yumshatib, yangi sektorlarni xorijiy sarmoyadorlar uchun ochdilar.

M. V. Charaeva ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarini moliyaviy boshqarish jarayonlarining konseptual asoslarini o'rgangan. Innovatsion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan.

T. V. Uskova ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash strategik ahamiyatga ega ekani, bu masalaning yechimi xomashyo eksportidan iqtisodiyotning innovatsion modeliga o'tishni talab etishi, bu borada investitsiyalar asosiy omil bo'lib xizmat qilishini asoslab bergan.





Milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb qilish va undan samarali foydalanish yo'llarini asoslashga qaratilgan yuqoridagi tadqiqotlarda iqtisodiy sharoit va qulayliklarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o'sishning faolligini ta'minlash imkoniyatlari o'rganilgan.

Xorijiy kapital nafaqat mamlakat iqtisodiyotini investitsiya bilan ta'minlash vositasi, balki uning tashqi iqtisodiy faolligi, texnologik rivojlanishi va xalqaro integratsiya darajasini belgilab beruvchi muhim strategik resurs hisoblanadi.

Xorijiy kapital shakllari; Xorijiy kapital milliy iqtisodiyotga turli shakllarda kirib keladi. Ushbu shakllar iqtisodiy ahamiyati va ta'sir doirasiga ko'ra farqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy investitsiya shakllari, asosan, quyidagi to'rt asosiy toifaga ajratiladi:

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) - Bu investitsiyalar xorijiy investorning mahalliy korxonada muayyan ulushga egalik qilishi yoki yangi qo'shma yoki to'liq xorijiy korxona tashkil etish orqali ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etishini anglatadi. Xalqaro amaliyotda FDI deb kamida 10% ulushga egalik qilish e'tirof etiladi.

Asosiy xususiyatlari:

Korxona faoliyati ustidan nazorat huquqi

Uzoq muddatli investitsiya shaklida bo'lishi

Texnologiya, nou-xau, boshqaruv tajribasi bilan birga kelishi

Portfel investitsiyalar - Bu turdagi investitsiyalar moliyaviy bozorlardagi aksiyalar, obligatsiyalar, derivativlar va boshqa qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritishni o'z ichiga oladi. Portfel investitsiyalar, odatda, investor korxona faoliyatini nazorat qila olmagan holda, qisqa muddatli foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Ular iqtisodiyot uchun likvidlik manbai bo'lib xizmat qiladi, biroq valyuta oqimining beqarorligiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy kapital shakllari mamlakat iqtisodiyotida turli funksiyalarni bajaradi:

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar — ishlab chiqarishni rivojlantiradi

Portfel investitsiyalar — moliyaviy bozorni faollashtiradi

Qarz resurslari — infratuzilmani kengaytirishga xizmat qiladi

Shu sababli, davlat investitsiya siyosatida ushbu shakllarning har biri uchun mos mexanizmlar va rag'batlantiruvchi instrumentlarni ishlab chiqishi zarur.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqot xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga jalb qilish imkoniyatlarini, ularning samaradorligini, mavjud shakllarini va yo'nalishlarini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda kompleks yondashuv asosida ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar va metodlar qo'llanildi:

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, ularning kirib kelish shakllari, yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Bu orqali xorijiy investitsiyalar hajmi, geografiyasi, sohalar bo'yicha taqsimoti, investitsiya oqimlari va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi.

Taqdim etilgan hujjatlar va rasmiy manbalarga tayangan holda kontent-tahlil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomalari, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlaridan foydalanildi. 2023–2024–yillarga oid rasmiy hisobotlar asosida so'nggi yillarda amalga oshirilgan xorijiy investitsiya loyihalari o'rganildi.

Solishtirma-tahliliy yondashuv – O'zbekiston tajribasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Jumladan, xorijiy kapitalni jalb qilish mexanizmlari, soliqqa oid imtiyozlar, normativ-huquqiy bazaning roli, va investitsion muhitning shakllanishi jihatlari bo'yicha solishtirma xulosalar chiqarildi.

Empirik tadqiqot elementlari - Tadqiqot davomida investitsiya muhitiga oid mavjud holat (siyosiy barqarorlik, infratuzilma, inson kapitali, huquqiy himoya) amaliy misollar asosida tahlil qilindi. Real investitsiya loyihalari asosida investorlar uchun risklar, to'siqlar va yengilliklar baholandi.

Grafik va jadvaliy usullar - Xorijiy investitsiyalar hajmining yillik o'zgarishi, tarmoqlar bo'yicha taqsimoti, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri grafik va jadval shaklida tizimlashtirildi. Bu orqali mintaqalar va sektorlar kesimidagi o'zgarishlar ko'rgazmali tarzda ifodalandi.

Nazariy yondashuv - Tadqiqotda xorijiy kapitalning nazariy tushunchasi, uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli, hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ahamiyati bo'yicha klassik va zamonaviy iqtisodchilar (J. Dunning, M. Blomstrom, R. Vernon va boshqalar) nazariyalari tahlil qilindi.



Tadqiqot bazasi

Tadqiqot quyidagi manbalar asosida olib borildi:

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Prezident Farmonlari;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hisobotlari;

Jahon banki, UNCTAD, IMF kabi xalqaro tashkilotlar statistik ma'lumotlari;

Ilmiy maqolalar, monografiyalar, iqtisodiy sharhlar.

Tahlil va natijalar

Xorijiy kapitalning milliy iqtisodiyotga jalb etilishi – bu murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy jarayon bo'lib, uning amalga oshishida bir qancha manbalar ishtirok etadi. Ushbu manbalar iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlari va yo'nalishlarida mamlakat uchun muhim bo'lgan moliyaviy, texnologik va boshqaruv resurslarini taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, xorijiy investitsiya manbalari quyidagi asosiy toifalarga ajratiladi:

Xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi nufuzli moliyaviy tashkilotlar tomonidan ajratiladigan kreditlar, grantlar va texnik yordam shaklidagi resurslar. Bu tashkilotlar odatda infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy sohalarni (ta'lim, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti) moliyalashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Xususiy va davlat xorijiy investorlari – transmilliy korporatsiyalar, yirik biznes subyektlari va xorijiy davlat kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar. Bunday investitsiyalar, odatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnologiyalarni transfer qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish bilan bog'liq bo'ladi.

Ikki tomonlama hamkorlik doirasidagi moliyaviy yordamlar – rivojlangan davlatlar yoki strategik sherik mamlakatlar bilan tuzilgan bitimlar asosida taqdim etiladigan grantlar, imtiyozli kreditlar va texnik yordamlar. Bunday resurslar ko'pincha energetika, qishloq xo'jaligi, ekologiya kabi muayyan sohalarni rivojlantirish yoki geosiyosiy hamkorlikni mustahkamlash maqsadida yo'naltiriladi.

Xalqaro moliya bozorlaridan jalb qilinadigan resurslar – davlat va yirik kompaniyalar tomonidan xalqaro obligatsiya bozori orqali, xususan, yevroobligatsiyalar chiqarish yoki sindikatlashgan kreditlar olish yo'li bilan jalb etiladigan moliyaviy mablag'lar. Bunday resurslar, odatda, infratuzilmaviy va strategik yo'nalishdagi yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Noan'anaviy investitsiya mexanizmlari – zamonaviy iqtisodiyotda lizing, franshaying, klaster tizimlari va davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan investitsiyalar xorijiy sarmoyaning muqobil, ammo samarali shakllari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, xorijiy kapital manbalari nafaqat moliyaviy qiymatga ega bo'lgan resurslar, balki innovatsiya, ilg'or texnologiyalar, boshqaruv madaniyati va global bozorga kirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Shu bois, ularni samarali jalb etish va maqsadli yo'naltirish milliy iqtisodiy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq jarayonlar o'rganildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanuvchi mexanizmlarga ta'sir etuvchi omillar baholanib, ularning mamlakat investitsion faolligiga ta'siri aniqlashtirildi. Shu doirada mavjud kamchiliklar va cheklovlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Xorijiy kapitalni jalb etish masalasi nafaqat investitsiyalar hajmini oshirish, balki ularning iqtisodiyotda samarali taqsimlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, investitsiya oqimlarini tahlil qilishda faqat yalpi ko'rsatkichlar emas, balki ularning iqtisodiyot tarmoqlari va mahalliy hududlar kesimidagi sohaga oid taqsimoti ham chuqur o'rganilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, investitsiya siyosatini maqsadli yo'naltirishga, turli tarmoq va hududlarning rivojlanish darajasiga mos ravishda resurslar taqsimotini optimallashtirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy kapital milliy iqtisodiyotga ko'p qirrali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U, eng avvalo, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, chunki ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va umumiy samaradorlikni kuchaytirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali aholi bandligi ta'minlanadi va ishsizlik darajasi kamayadi.

Xorijiy investitsiyalar raqobat muhitini kuchaytiradi hamda mahalliy korxonalarni sifatli mahsulot ishlab chiqarishga undaydi. Bundan tashqari, eksport salohiyatining ortishi valyuta tushumlarini ko'paytiradi va tashqi savdo balansining muvozanatlashishiga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy kapital oqimini yanada samarali jalb etish va undan oqilona foydalanish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya etiladi:



Xorijiy investorlar uchun shaʼfʼof va barqaror huquqiy asosni takomillashtirish;  
Korrupsiyaga qarshi kurashish va biznes yuritishdagi byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish;  
Strategik tarmoqlar uchun vaqtincha soliq imtiyozlarini joriy etish;  
Xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan bojxona tartiblarini qoʻllash;  
Elektr energiyasi, logistika, transport va telekommunikatsiya sohalarida infratuzilmani modernizatsiya qilish;

Erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar faoliyatini kengaytirish;

Xorijiy kompaniyalarda ishlash uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini yoʻlga qoʻyish;

Oliy taʼlim bilan mehnat bozori oʻrtasidagi integratsiyani kuchaytirish.

Ushbu omillar xorijiy kapitalni jalb etish va undan oqilona foydalanishni mamlakat iqtisodiy siyosatining uzoq muddatli ustuvor yoʻnalishi sifatida shakllantirish zarurligini koʻrsatadi. Bu yoʻnalishda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, soliq imtiyozlarini taqdim etish va infratuzilmani rivojlantirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026–yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq soʻzi gazetasi. – 2018-yil 29-dekabr. – № 271–272 (7229–7230). <https://president.uz/oz/lists/view/2228>
3. Liesbeth Colen, Miet Maertens, Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. – January 2009. – DOI: 10.4324/9780203076880. – <https://www.researchgate.net/publication/237244956>
4. Kentor J., Boswell T. Foreign capital dependence and development: A new direction // American Sociological Review. – 2003. – Vol. 68. – № 2. – P. 301–313.
5. Boltaeva M. Advantages and effectiveness of attracting foreign investments. – Global Book Publishing Services, 2024. – P. 1–46.
6. Blomström M., Kokko A., Mucchielli J. L. The economics of foreign direct investment incentives // Foreign direct investment in the real and financial sector of industrial countries. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 2023. – P. 37–60.
7. Ibragimov A. Prospective ways of attracting foreign investment to the national economy // International Journal of Artificial Intelligence. – 2025. – Vol. 1. – № 1. – P. 137–143.
8. Blomström M., Kokko A., Mucchielli J. L. The economics of foreign direct investment incentives // Foreign direct investment in the real and financial sector of industrial countries. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 2023. – P. 37–60.
9. Чараева М. В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие. – Москва: Альфа-М, 2014. – 240 с.
10. Ускова Т. В. Роль инвестиций в обеспечении устойчивого экономического роста // Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. – 2013. – № 6 (30). – С. 45–59.
11. Rajabov S. U. et al. Improving the legal fundamentals for attracting foreign investment to the national economy // Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review. – 2022. – Vol. 11. – № 5. – P. 16–18.
12. Innatillo B. J., Shakhzod N. Analysis of the situation of attracting foreign investments to our country's economy // Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship. – 2025. – Vol. 1. – № 2. – P. 271–276.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>